

ZIGMUND FREYD HAYOTI VA IJODI

Xudoyberganov Ollombergan Ilhom o'g'li

Berdoq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti Chimboy fakulteti Amaliy psixologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar:

Turumbetova Zamira

Renessans Ta'lim Universiteti PhD, dotsent.

Annotatsiya: *Zigmund Freyd mashxur tadqiqotchi psixoanaliz asoschilaridan biri. Ilmiy izlanuvchilar hozirgacha uning hayoti va ilmiy ishlari bilan qiziqib kelmoqda Freyd inson psixologiyasi va uning shakillanishi haqida juda katta tadqiqotlar olib borgan shaxs hisoblanadi. Uning psixoanaliz bo'yicha nazariyalari hozirgi vaqtgacha o'rganilib kelinmoqda. Freyd haqida mish - mishlarga aniqlik kiritamiz.*

Kalit so'zlar: *Id, ego, super ego, freydizm, tushlarning talqini asari, ong.*

ОСНОВАТЕЛЬ СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ – ЖИЗНЬ И ТВОРЧЕСТВО ЗИГМУНДА ФРЕЙДА

Аннотация: *Зигмунд Фрейд — известный учёный и один из основателей психоанализа. Учёные до сих пор проявляют интерес к его жизни и научным трудам. Фрейд считается человеком, проводившим огромные исследования в области человеческой психологии и её формирования. Его теории по психоанализу изучаются и в наше время. В данной статье мы проясняем слухи, связанные с Фрейдом.*

Ключевые слова: *ид, эго, суперэго, фрейдизм, «Толкование сновидений», сознание.*

FOUNDER OF MODERN PSYCHOLOGY – THE LIFE AND WORK OF SIGMUND FREUD

Annotation: *Sigmund Freud is a famous researcher and one of the founders of psychoanalysis. Researchers are still interested in his life and scientific works. Freud is considered a person who conducted great studies about human psychology and its formation. His theories on psychoanalysis are still being studied today. In this article, we clarify the rumors about Freud.*

Keywords: *Id, ego, super-ego, Freudism, The Interpretation of Dreams, consciousness.*

Zigmund Freyd Chexiyaning Prshibor (hozirgi Frayburg) shahrida 1856-yilning 6-mayida dunyoga kelgan. 1860-yili Freydlar oilasi Vena shahriga ko'chib o'tishgan. Zigmund ko'p bolalik oilada dunyoga kelgan. Ularning oilasida 8 nafar farzand bor edi. Zigmund esa ularning uchinchisi bo'lgan. U o'ta nimjon bo'lib, tez-tez kasal bo'lardi. Shu sababdan ham oilada asosiy e'tibor unga qaratilardi. Freydlar oilasi kambag'al yashagan. Uning otasi jun sotib farzandlarini boqgan.

Zigmund jismonan nimjon bo'lishiga qaramasdan ilm olishga juda chanqoq bo'lgan. U bolalik davridayoq o'ta ziyrak va aqlli bo'lsa-da, injiq va qaysarligi bilan ham ajralib turgan. Yosh Zigmundni deyarli barcha ma'lumotlar qiziqtirardi. U chet tillarni ham tez o'zlashtirgan.

Freyd o'smirlik davridayoq xayolparast va shuhratparast bo'lgan. Uning ilmga, ayniqsa tabiiy fanlarga chanqoqligi ortib borardi. U barcha ilmlarni egallab, mashhur kishi bo'lishni orzu qilgan va ko'p kitob o'qigan. Zigmund maktabda o'qib yurgan paytidayoq Ch. Darvinning ta'limoti bilan qiziqib qoladi va uni boshdan-oyoq o'qib chiqib yod oladi. Yosh Freyd o'z tengdoshlariga: "Men Ch. Darvinga o'xshagan tabiatshunos olim bo'laman", – deb aytgan.

Freyd 17 yoshida, ya'ni 1873-yili gimnaziyani muvaffaqiyatli tugatib, mashhur Vena universitetining tibbiyot fakultetiga o'qishga kiradi. Vena universiteti Yevropadagi eng mashhur ilm maskanlaridan biri bo'lib, unda dunyoga mashhur olimlar dars bergan. Freyd falsafiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha ilmiy to'garaklarda qatnashgan.

U 1876–1882-yillarda Freyd Ernst Bryukning fiziologiya laboratoriyasida ilmiy izlanishlar olib boradi va orqa miya fiziologiyasi bilan shug'ullana boshlaydi. Fiziologik jarayonlarni o'rganishga sho'ng'ib ketgan Freyd ruhiyatning biologik asoslari va fiziologik parametrlariga e'tibor qaratdi. U tug'ma instinktlar bilan ruhiyat orasida bog'liqlik izlaydi. O'sha davrlarda psixologiyada falsafiy qonunlar ustunlik qilib, psixologlar voqea va hodisalarning tafsilotlarini o'rganish bilan cheklanib qolishgan, ya'ni ularni miyadagi fiziologik jarayonlar bilan bog'lashmagan. Buni tushunish mumkin, albatta. Chunki o'sha paytlarda fiziologiya hali rivojlanmagan edi. Fiziologik qonunlarga asoslangan eksperimental psixologiya esa endi kurtak ota boshlagan edi.

Z. Freydning boshqa psixologlardan keskin ilgariab ketganligining asosiy sababi — uning fiziologiya va biologiya qonunlariga qat'iyon amal qilganligidadir. Chunki u endigina rivojlanib kelayotgan fiziologiyaning har bir yutug'idan psixologik qonuniyatlarni o'rganishda keng foydalangan. Freyd voqea va hodisalar tafsiloti bilan cheklanib qolmasdan, ularning kelib chiqish sabablari va asl mohiyatini izlab topishga intilgan.

Freydning fiziologiya bo'yicha ustozlaridan biri Ernst Bryukk o'z davrining buyuk fiziologi bo'lgan. Bir necha yillardan so'ng butun dunyoga mashhur bo'lishga intilgan Freyd E. Bryukk bilan o'tkazgan onlarini eslab:

"Men ustozim Bryukk bilan laboratoriyada soatlab qolib ketardim. Hayvonlarning orqa miya fiziologiyasini o'rganish men uchun eng baxtli onlar edi", – degan.

1882-yili Freyd 21 yoshida Marta Verneyga uylanadi. U ham kambag'al oiladan edi. Ilmiy ish insonga zavq bag'ishlaydi, biroq har doim ham qorin to'ydira bermaydi! Endi oilali bo'lgan Freyddda iqtisodiy qiyinchiliklar yana davom etadi. Oila boqish borasida kelib chiqayotgan er-xotin orasidagi janjallar Freydni ilmiy ishini tashlashga majbur etadi.

U oila boqish uchun oddiy nevropatolog bo'lib ishlay boshlaydi. Freyd nevropatolog bo'lib ishlay boshlagach, mahalliy gazetalar orqali shunday e'lon beradi:

“Asab buzilishlarini davolayman!”

Freyd nevrologiyaga juda qiziqib ketdi. U asab kasalliklarini endi kitobdan o'qib emas, balki amaliy tibbiyotdan o'rganishga kirishdi. U bemorlar bilan soatlab suhbatlashishni yoqtirar edi. O'sha paytlarda hali yaxshi rivojlanmagan nevrologiyadan uning ko'ngli to'lmasdi.

1896-yili Freyddda davolanib yurgan Emma N. ismli bemor uning davolash usullaridan qattiq shikoyat qiladi:

“Bu nevropatolog jonimga tegdi! U mening ahvolimni faqat og'irlashtiryapti!”

Bu so'zlar Freydga qattiq ta'sir qiladi. Chunki o'sha paytlarda asab kasalliklarini, xususan, nevrozni davolashga oid qo'llanmalar ham uni qoniqtirmas edi.

Asab kasalliklarini davolashga oid kitoblarda keltirilgan tavsiyalar bemorlarda Freyd kutgan natijani bermasdi. Shundan so'ng Freyd nevrologiyani chuqurroq o'rganish uchun Yevropada juda katta nom qozongan fransuz nevrologi Jan Marten Sharko (1824–1893) yoniga boradi.

Freyd Sharkoning ishlari bilan faxrlanib yurardi va u bilan uchrashishni azaldan orzu qilardi. J. M. Sharko Fransiyada shu qadar mashhur ediki, hatto unga “Nevrologiya Napoleoni” deb nom berilgan edi. U nevroz va isteriya belgilarini mukammal bilgan va bemorlarni davolashda gipnoz usulidan keng foydalangan. Sharko deyarli barcha aristokratlarning shaxsiy vrachi bo'lgan.

Z. Freyd Parijdan Venaga qaytgach, o'sha davrning mashhur psixiatrlaridan biri Iosif Breyer bilan birga isteriya va nevrozlarni chuqur o'rganishni boshlaydi. Ular Sharko asarlarida ko'rsatilgan usullarni nevroz va isteriyani davolashda qo'llay boshlashadi. Ammo o'sha paytlarda endigina amaliyotga kirib kelayotgan fizioterapiya usullari va keng qo'llanib kelayotgan gipnoz Freyd kutgan darajada yordam bermayotgan edi.

Z. Freyd insonda “yashirinib” yotgan psixologik jarayonlarni ongsiz jarayonlar deb ataydi. Rus psixologlari bu holatni turli atamalar bilan ifodalaydilar: “bezsoznatelnoe” (ongsizlik), “podsoznanie” (ong osti). O'zbek olimlari orasida esa ongsizlikni “botiniy ong” deb atash taklifi ham ilgari surilgan.

Ongsizlik — bu shunday holatki, bunda inson ixtiyorsiz tarzda, o'zi bilmagan yoki anglamagan holda turli harakatlarni amalga oshiradi. Bu harakatlar kundalik hayotda, uyqu paytida (ya'ni tush ko'rishda) yoki gipnoz holatlarida kuzatiladi. Ongsizlik, tabiiyki, ongga bog'liq bo'lmagan holatdir. Z. Freydning ta'biri bilan aytganda, ongdan

siqib chiqarilgan insonning tabiiy instinktlarining manzili ong ostidir. Ongsizlik tug'ma xususiyat bo'lib, u insonning barcha xatti-harakatlarini belgilab beradi.

Freyd o'z kuzatuvlari asosida inson ruhiyatining yangi modelini yaratgan. Unga ko'ra, bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan uchta psixologik tuzilma mavjud: "id", "ego" va "super-ego".

"Id" — bu instinktlar majmui bo'lib, u ongdan holi, ya'ni ongsizdir.

"Ego" — bu "Men", ya'ni ongli qism.

"Super-ego" — bu jamiyat, ijtimoiy muhit, insonni o'rab turgan axloqiy nazorat tizimi. "Super-ego" odamning xulq-atvorini "tepadan" nazorat qilib turadi.

Freydning fikricha, evolyutsiyaning dastlabki bosqichida insonda o'zini saqlab qolish, ya'ni ovqat izlash instinkti uning xatti-harakatlarini belgilab bergan. Keyinchalik bu o'rinni ko'payish instinkti (seksual instinkt) egallay boshlagan. Freyd barcha biologik instinktlarni — himoya, ovqat izlash va ko'payishni — bitta so'z bilan "id" deb atagan.

"Id" ongda aks etmaydi, u ong ostida joylashgan, to'g'risi, ongsizlikka "tiqishtirilgan". "Id" qoniqish prinsipi asosida faoliyat ko'rsatadi, bunda jinsiy qoniqish alohida o'rin tutadi. Freyd jinsiy mayl tushunchasini keng ma'noda talqin qilib, inson xatti-harakatining boshidan beri shu kuch tomonidan boshqarilishini ta'kidlaydi. Freyd fikricha, qondirilmagan his-tuyg'ular va mayllarning ruhiy quvvati ong ostida to'planib boradi va o'z ifodasini topishga urinadi. Bu mayllar ichida u libidoni (jinsiy energiyani) asosiy o'ringa qo'ygan.

"Id" doimo "Men" va "Super-men" bilan murakkab ichki kurashda bo'ladi, chunki ular "id"ni nazorat qilishga intiladilar. "Id" kuchli energiyaga ega bo'lsa-da, "Men" uni ong ostidan yuzaga chiqishiga yo'l qo'ymaydi. Shu sababli "id" tajovuzkor xususiyatga ega.

"Men" to'liq shakllanmaguncha, instinktlar inson hayot tarzini belgilab turgan. "Men"ning rivojlanishi esa inson hayotini o'zgartirib, xulq-atvorni ongli nazorat ostiga olgan. Shunga qaramay, psixoanalitiklar "id"ni inson hayotini belgilovchi asosiy manba sifatida ko'radilar. "Id" o'zgarmas, "Men" esa rivojlanib, o'zgarib boradi.

Inson boshqa jonivorlardan aql-zakovat, ya'ni ong bilan farq qiladi. Demak, ong — bu "Men"dir. Agar inson faqat "id" qonuniyatlariga bo'ysunib yashaganida edi, uning hayoti hayvonlarnikiga o'xshab qolardi. Chunki inson faoliyati ongli jarayon bo'lib, u o'z harakatlarida asosan ongga tayangan holda ish ko'radi. Ammo bu harakatlarni yo'naltiruvchi kuch — "id"dir.

Psixoanalitiklar inson ruhiyatini tirik hujayraga o'xshatadilar:

Hujayraning tashqi qobig'i — bu "Men",

Ichki qismi esa — "Id".

Hujayra ichida modda almashinuvi natijasida katta energiya to'planadi, kuchli energiyaga ega bo'lgan "id" tashqariga yorib chiqmoqchi bo'ladi. Bunga esa "Men" — ya'ni tashqi qobiq — yo'l qo'ymaydi.

Freyd "Men" va "Id" o'rtasidagi munosabatlarni chavandoz va ot o'rtasidagi aloqaga o'xshatgan: chavandoz otni boshqaradi, lekin harakat faqat otning kuchi bilan amalga oshadi.

Zigmund Freyd psixologiya sohasida ko'plar ishlar qilgan. Uning qizi Anna Freyd esa Bolalar Psixoanalizi asoschisi hisoblanadi.

Zigmund Freyd haqida ko'p xil mish-mishlar bor. Ba'zilar aytadi u ham ayol, ham erak bilan yashagan deb, unga panseksualist laqabini qo'ygan. Freyd o'z bolalarida tajriba o'tqazgan, ular shu tajriba natijasida vafot etgan, shu kabi mish-mishlar o'z tasdig'ini topmagan. Ularning haqiqatga yaqin tarafi ham yo'q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Фрейд З. Введение в психоанализ. — Москва: АСТ, 2012. — 544 стр.
2. Фромм Э. Величие и ограниченность теории Фрейда. — Москва: АСТ, 2000. — 329 стр.
3. Ибодуллаев З.Р. Тиббиёт психологияси. Дарслик. — Тошкент, 2009. — 394 бет.

-